



KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqa boshlagan

№14 (800), 2025-yil 30-iyul

facebook.com/nkmkofficial

t.me/ngmkofficial

instagram.com/nkmk.official

www.ngmk.uz



Zarafshon qurilish boshqarmasi tashkil topganligining 60 yilligiga

YANGI DAVR BUNYODKORLARI

Quvondiq SANAQULOV,
“Navoiy kon-metallurgiya
kombinati” AJ Boshqaruv raisi – Bosh
direktori

Mustaqilligimizning o'ttiz to'rt yilligini nishonlashga sanoqli kunlar qolmoqda. “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!”, degan ezgu g'oyani mujassam etgan bayram shukhi, shukronaligini ko'pmillatli xalqimizga cheksiz g'urur, quvonch ulashmoqda.

Shunday shukuhli kunlarda o'z hayotini dunyodagi sharaflil kasblardan biri bo'lgan qurilish sohasiga bag'ishlagan barcha quruvchilarimiz qutlug' kasb bayrami hamda Zarafshon qurilish boshqarmasi tashkil topganligining 60 yilligini keng nishonlamoqda.

Yaxshi bilimizki, quruvchilik – eng sharaflil va mashaqqatli kasblardan biri hisoblanadi. Qurilish degani, bu – o'z-o'zidan bo'lib qoladigan ish emas. Ayniqsa, kon-metallurgiya sohasida! Zero, amalga oshiriladigan har bir loyiha o'ziga xos murakkabliklarga ega bo'ladi. Uning texnik shartlarini mukammal ishlab chiqishdan - loyihani bunyod etishgacha bo'lgan jarayon sohada katta bilim va tajribaga ega bo'lgan ishchi va quruvchi, me'mor va muhandislar, olim va mutaxassislar salohiyati, mehnati katta rol o'ynaydi.

Zarafshon qurilish boshqarmasi jamoasi oldiga qo'yilgan mana shunday mas'uliyatli va sharaflil vazifalarni bajarib kelayapti. Ayniqsa, keyingi yillarda ularning jonbozligi, mashaqqatli mehnati tufayli kombinatimizda amalga oshirilayotgan barcha investitsion loyihalar qo'yilgan rejalaridan oldin bajarilgani buning isbotidir.

Barcha sohalarida bo'lgani kabi, Yangi O'zbekistonda qurilish sohasi ham yildan-yilga jadal rivojlanib bormoqda. Muhtaram Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: “Yurtimiz qadim-qadimdan bunyodkorlik an'analari bilan dunyoga dong taratib kelgan. Ana shu bezavol an'analarni davom ettirish va zamonaviy me'morlik yutuqlari bilan uyg'unlashtirish asosida o'zbek qurilish maktabi bugungi kunda rivojlanishning yangi bosqichiga ko'tarilmoqda”.

Mamlakatimizda kechayotgan bunyodkorlik jarayonida kombinatimiz quruvchilari ham faol ishtirok etib kelayotgani barchamizni xursand etadi. So'nggi sakkiz yillik mas'uliyatli davrda Zarafshon qurilish boshqarmasi va uning tarkibida bo'lgan “Zarafshon” va “Navoiy” qurilish-montaj boshqarmalari, “Sanoatelektromontaj” trestlari va boshqa bo'linmalarda mehnat qilib kelayotgan 2,7 ming nafarga yaqin soha fidoyilari tomonidan sanoat, ijtimoiy sohalarida ko'plab bunyodkorlik ishlari, infratuzilma obyektlari barpo etildi.

Ayniqsa, 2017-2024-yillarda quruvchilarimiz tomonidan amalga oshirilgan umumiy qiymati 3 milliard AQSh dollari bo'lgan 24 ta yirik investitsion loyiha konchilik va metallurgiya sohasida yangi sahifa ochdi. Ya'ni, Qizilqum sahrasida qad rostlagan zamonaviy ishlab chiqarish korxonalari mamlakatimiz solnomasidan ulkan bunyodkorlik namunasi sifatida joy oldi. Kombinativ bu bilan o'zining yangi taraqqiyot bosqichi



chiga ko'tarildi va ushbu yutuqlarimizda Zarafshon qurilish boshqarmasi jamoasining xizmatlari beqiyos bo'ldi.

Buning natijasida 5, 6, 7-gidrometallurgiya zavodlari, 2-gidrometallurgiya zavodi ikkinchi navbati, 3-gidrometallurgiya zavodini kengaytirish hamda filtrlash, kuydirish va quritish sexi, “Zarmitan” konida “Skipli” shaxta stvoli kabi yangi ishlab chiqarish obyektlari, salkam 90 kilometrlik temir yo'llar ishga tushirilgani buning isbotidir. Bu yutuqlarni iqtisodiy jihatdan tahlil etadigan bo'lsak, birgina, 2023-yilda 473,5 million AQSh dollarlik, 2024-yilda esa 789,6 million AQSh dollarlik kapital mablag'lari o'zlashtirildi.

Bu kabi ishlarimiz sohada katta yangilik, bunyodkorlik yo'lidagi ulkan qadam bo'ldi. Quruvchilarimiz tomonidan amalga oshirilayotgan bu ishlar va o'zgarishlarni ko'rib nafaqat yurt-doshlarimiz, balki kombinatga kelayotgan xorijlik mehnonlar ham ko'pming kishilik jamoamiz ishiga, qurilish sohasidagi yutuqlarimizga tan bermoqda. Sohada ancha ilgari ketganimizni e'tirof etmoqda. Bu, hech qanday balandparvoz gaplar emas, aksincha, aniq natija, amalda bor narsalar. Ularning barchasi qisqa fursatlarda, belgilangan muddatdan oldin bajarildi. Bu, shak-shubhasiz, quruvchilar, mutaxassis muhandislarining matonatli mehnati, o'ttirsigan tajribasi mahsulidir. Bir so'z bilan aytganda, so'nggi yillarda barpo etgan har bir inshoot qurilishi soha uchun ulkan taraqqiyot, muhim yangilik, katta tarixidir.

Shu bilan birga, kombinat ulkan mas'uliyatni zimmasiga olib, hududlarda konchilar maskanlari, turar-joylar, ijtimoiy soha obyektlarini qurishda faol ishtirok etib kelmogda. Keyingi yillarda Qo'shrabot tumanida barpo etilgan Zarkent qo'rg'oni, akvapark, madaniyat va sport muassasalari, Zomin tumanida “NKMK” sanatoriysi, Zarafshon shahrida favvoralar sayilgohi, “Umid” maktabgacha ta'lim muassasasi, 504 o'rinni ixtisoslashtirilgan maktab-internati, Uchquduq tumanida “Oltinko'l” dam olish majmuasi, Qiziltepa tumanida Xalqaro shaxmat maktabi va boshqa ijtimoiy obyektlar fikrimizga dalildir.

Navoiy, Zarafshon, Uchquduq shaharlari, Zarafshon qurilish boshqarmasi jamoasining xizmatlari beqiyos bo'ldi.

kent qo'rg'oni, Marjonbuloq shaharchasi va boshqa hududlarda hamkasblarimiz, ular oilasi, farzandlari, mahalliy aholi vakillari mohir quruvchilarimiz bunyod etgan zamonaviy turar-joy maskanlari, favvoralar, madaniyat va istirohat bog'lari, dam olish maskanlari, sanatoriylarda dam olayotgani, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazayotgan, ularning quvonchi va shukronaligini ko'rib, Yangi O'zbekistonda inson qadriini ulug'lashdek ezgu maqsadga xizmat qilayotgan islohotlardan xalqimiz cheksiz bahramand bo'layotganiga guvohmiz.

Shu o'rinda, o'tgan tarixga yuzlansak! Mustaqillik va yaqin o'n yilliklargacha bu kabi yirik loyihalar faqat chetdan ko'mak asosida bajarilar edi. Bugun esa ularni zamonaviy qurilish ilmini chuqur o'zlashtirgan quruvchilarimiz bajarayapti va bu o'ziga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamlamoqda.

Xalqimizda “Ish quroling soz bo'lsa, mashaqqatning oz bo'lur”, degan naql bor. Shu jihatdan, qurilish tashkilotlarimiz avtoparkini bosqichma-bosqich texnikalar bilan yangilash doimiy e'tiborimizda. Sohadagi yana bir yutuqlarimizdan biri, bu – 29 turdan ortiq qurilish materiallari korxonada ishlab chiqarish yo'lga qo'yilganidir. Misol uchun, keyingi sakkiz yilda 996,8 milliard so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgani qurilishlarni jadal-lashtirish, mablag'larni iqtisod qilishga katta imkoniyatlarni yaratdi.

Mohir quruvchilarimiz mehnati doimiy e'tiborida bo'lib, o'z rag'batini topib kelayapti. Birgina, keyingi yillarda hayotini shu sharaflil kasbga bag'ishlagan quruvchilarimiz davlatimizning yuksak mukofotlariga sazovor bo'ldi. Ali Eshonqulov “O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan quruvchi” faxriy unvoni, Farhod Bahronov va Albina Pogosskaya “Do'stlik” ordeni, Nemat Ro'ziyev va Vaxtag Kapanadze “Mehnat shuhrati” ordeni bilan taqdirlangani buning isbotidir.

Bugungi quvonchli kunda boshqarmaga rahbarlik qilgan Nikolay Dyakov, Faxriddin Umarov, G'ayrat Suleymanov, Axmat Umarov, Viktor Suxodubenko, Ali Eshonqulovlar kabi rahbarlarning xizmatlarini alohida e'tirof etish lozim.

Yana bir quvonarli jihati, o'tgan yillar mobay-

nida hamkasblarimiz orasidan qurilish sohasida yetuk vakillar yetishib chiqqani, fursatdan foydalanib, ularning ayrimlarini nomma-nom aytish o'tishni lozim, deb bilaman. Bular Mirzaboy Alqarov, Komiljon Rasulov, Olim Foxirov, Hayit Po'latov, Toshtemir Azimov, Halim Bahronov, Said Karimov, Abdushukur Eshonqulov, Shuhrat Iskakovlar shular jumlasidandir.

Tajribali quruvchilarimiz bilan bir qatorda, keyingi yillarda jamoada zamonaviy fikrlaydigan, qurilish sohani yaxshi biladigan, qalbida daxldorlik hissi jo'sh urgan yosh mutaxassislarning ko'pligi barchamizni quvontiradi. Kombinat qurilish sohasida shakllangan Otabek Hasanov, Shuhrat Avezov, Behruz Qosimov, Alisher Dehqonov, El-yor Qurbonov, Maqsud Shodiyev kabi yosh rahbar-xodimlar o'zlariga bildirilgan yuksak ishonchni har tomonlama oqlab kelayapti.

Ishonch bilan ayta olamizki, jamoa bundan keyin ham zimmasiga olgan barcha sharaflil vazifalarni sidqidildan ado etib, fidoyi insonlari bilan oldingi saflarda yurtimiz taraqqiyoti va kombinat rivojiga o'z hissasini qo'shishda davom etaveradi.

Kombinatimiz jamoasi oldida katta marralar turibdi. Sizlar bilan birgalikda kelgusida kombinatni barqaror rivojlantirish dasturini amalga oshirishimiz zarur. Bu borada quruvchilarimizning o'z kasbiga mehri, burchiga sadoqati, g'ayrat-shijoati va amaliy ko'magi har doimgidek kerak bo'ladi.

Ma'lumki, 2030-yilga qadar ko'plab yirik investitsion loyihalarni amalga oshirish kerak. Uning ganchalik mas'uliyatli ekanini ekanini chuqur his etib, bu jarayonda quruvchilarimiz boy tajriba va mahorati bilan faol ishtirok etishlari, zafarli an'analarni davom ettirishlariga ishonaman.

Fursatdan foydalanib hamkasblarimizni qo'shaloq bayram - Qurilish sohasi xodimlari kuni hamda Zarafshon qurilish boshqarmasining 60 yillik yubileyi bilan qizg'in tabriklayman.

Yurtimiz taraqqiyoti, kombinatimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligi yo'lida olib borayotgan ezgu ishlaringizda sizlarga kuch-g'ayrat, mustahkam sog'lik, oilaviy baxt-saodat, ushbu mas'uliyatli vazifalarni amalga oshirishda yangi yutuqlar tilayman.

Xabarlar

KUCH-QUDRATIMIZ DO'STLIKDA

Mamlakatimizda 30-iyul – “Xalqlar do'stligi kuni” munosabati bilan turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish an'anaga aylangan. Bu bayram turli millat va elatlar o'rtasidagi ahillik, o'zaro hurmat va hamkorlikning ramzi hisoblanadi.

Shu munosabat bilan “O'zbekiston umumiy uyimiz!” shiori ostida “NKMK tarixi” muzeyida Qizilqum kon boshqarmasi ishchi-xodimlari ishtirokida tashkil etilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbir qatnashchilarda katta taassurot qoldirdi.

Jamiyatimizda millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik muhitini mustahkamlash yo'lida olib borilayotgan siyosatning yaqqol namunasi sifatida Navoiy viloyatida o'nga yaqin milliy-madaniy markazlar samarali faoliyat yuritmoqda. Tadbirida qozoq, qoraqalpoq, rus, tatar, koreys, yahudiy milliy-madaniy markazlari vakillari ishtirok etib, o'zlarining milliy urf-odatlarini, raqs va kuy-qo'shiqlarini namoyish etishdi.

ZAMONAVIY KON TEXNIKALARI KELITIRILDI

Dunyoning eng yirik oltin koni hisoblangan “Muruntov”da ishlab chiqarish rejasini o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash, uning samaradorligini oshirishda zamonaviy texnikalarning o'rni baqiyos. Shu maqsadda, yaqinda kovshining hajmi 20 kubometr bo'lgan ikkita zamonaviy ekskavator keltirildi. Bu bilan konda zamonaviy ekskavatorning soni 47 taga etdi.

Koni jamoasi tog' jinslarini qazib olish rejasini muddatidan oldin bajarib kelmoqda. Bunda, albatta, zamonaviy texnika va uskunalarining hissasi katta bo'layotir. Misol uchun, 2024-yilda 97,8 million kubometr tog' jinsi qazib olingan bo'lsa, 2025-yilning olti oyida qariyb 53 million kubometr tog' jinslari qazib olindi.

Konda jami 75 dona tog'-kon uskunasi, ekskavatorlar va burg'ilash uskunalari ishlab chiqarishga jalb etilgan bo'lib, ular yordamida tog' jinslarini qidirish va yuklash ishlari sifatli amalga oshirilmoqda, – deydi bosh mexanik Ravshan Pinazarov. – Konning o'zlashtirishning 5-navbati ikkinchi bosqichi investitsiya dasturi doirasida kelgusida shu kabi kon texnikalari yana keltiriladi.

Qurilish sohasi xodimlari kuni oldidan

YUKSAK MAS'ULIYATNI HIS ETIB

Bunyodkorlik zamirida nafaqat qurilish yoki obodonlashtirish, balki Yangi O'zbekiston taraqqiyotiga hissa qo'shish maqsadi mujassam. Navoiy kon-metallurgiya kombinati ham o'zining ulkan quruvchilar jamoasiga ega. Zero, kombinat yutuqlarini qurilish-bunyodkorlik ishlari va quruvchilar xizmatlarisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Davomi 2-betda



Tadbir

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida “Dolzarb 90 kun” loyihasi doirasida o'tkazilgan tantanali diplom topshirish marosimida bitiruvchi yoshlar, ota-onalar hamda mehmonlar ishtirok etdi. Tantanali tadbirida “NKMK” AJ Boshqaruv raisi – Bosh direktori Q.Sanaqulov ishtirok etib, bitiruvchi yoshlarni tabriklab va ularga kelgusi ishlarda muvaffaqiyatlar tiladi.

Navoiy viloyati hokimi o'rinbosari J.Xodjaev tabrik so'zida malakali muhandis kadrlar tayyorlashda universitet va kombinat hamkorligi muhim ahamiyat kasb etayotganini alohida e'tirof etdi. Shundan so'ng yoshlarga mutaxassislik diplomlari tantanali topshirildi.

Qayd etish kerak, mazkur o'quv yilida universitetni jami 1833 nafar talaba, ulardan 16 nafari imtiyozli diplom bilan tamomladi. Shuningdek, 53 nafar talaba magistr darajasi-ni oldi. Bayram dasturi hayajonli va taassurotga boy tarzda o'tdi.

DIPLOMLAR TANTANALI TOPSHIRILDI



BUNYODKORLIK SOLNOMASI

Keyingi yillarda investitsion loyihalar asosida zamonaviy ishlab chiqarish ob'ektlari, ya'ni, yangi quvvatlar - gidrometallurgiya zavodlari, kon-shaxtalar, uchastka va sexlar barpo etildiki, ular O'zbekiston kon-metallurgiya sanoatining haqiqiy namunasi bo'ldi.

5-GIDROMETALLURGIYA ZAVODI

"Auminzo-Amantoy" ma'danli maydonida oltin ma'danlarini qazib olish va qayta ishlash majmuasini qurish (5-GMZ) (I-II bosqich) loyihasi asosida bunyod etilgan. Yillik ishlab chiqarish quvvati 5 million tonna ma'danni qayta ishlashga mo'ljallangan.



6-GIDROMETALLURGIYA ZAVODI

Umumiy qiymati 274,7 million AQSH dollari bo'lgan "Pistali" koni negizida oltin tarkibli ma'danlarni qazib olish va qayta ishlash majmuasi qurish (6-GMZ) investitsion loyihasi asosida 2023-yilda barpo etilgan. Yillik ma'danni qayta ishlash quvvati hozirda 5 million tonnadan ortiq.



7-GIDROMETALLURGIYA ZAVODI

Umumiy qiymat 247,6 million AQSH dollari bo'lgan "Oltinni uyumda ishqorlash sexida texnologen chiqindilarni qayta ishlash majmuasini qurish (7-GMZ)" investitsion loyihasi asosida 2021-yilda ishga tushirilgan. Yillik ma'danni qayta ishlash quvvati 16 million tonnani tashkil etadi.



2-GIDROMETALLURGIYA ZAVODI

Umumiy qiymati 168,3 million AQSH dollari bo'lgan "2-gidrometallurgiya zavodi ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish" investitsion loyihasi asosida uning ikkinchi navbati 2023-yilda foydalanishga topshirildi. Yillik ma'danni qayta ishlash quvvati 12 million tonnani tashkil etadi.



"SKIPLI" SHAXTA STVOLI

Umumiy qiymati 235,6 million AQSH dollari bo'lgan "Zarmitan" konining quyi gorizontlarini o'zlashtirish" investitsion loyihasi asosida ushbu shaxta stvoli 2025-yilda ishga tushirildi. Ushbu zamonaviy muhandislik inshootining yillik ma'dan tashish ko'rsatkichi 1,4 million tonnani tashkil etadi.



YUKSAK MAS'ULIYATNI HIS ETIB

■ Oxiri. Boshlanishi 1-betda

Oltmish yilda amalga oshirilgan ishlar, qo'lga kiritilgan yutuqlar natijasida Zarafshon qurilish boshqarmasi yurtimizda o'z o'miga ega bo'lgani bunga yaqqol misoldir. Albatta, bu ishlar o'z-o'zidan bo'lgani yo'q. Bunda, minglab insonlarning beqiyos xizmatlari bor. Korxonamiz yubileyi keng nishonlanayotgan shu kunlarda ularning ma'lum bir qismi yaqinlari ardog'ida keksalik gashtini surayotgan bo'lsa, ba'zilar a'fsuski oramizda yo'q. Lekin, biz ularning xizmatlarini hamisha eslab, mamnuniyat bilan e'tirof etishni o'zimiz uchun ham farz, ham qarz, deb bilamiz.

O'tgan davr mobaynida, ayniqsa, keyingi yillarda barpo etilgan ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlari – turur-joylar, tibbiyot, madaniyat va sport muassasalari, istirohat bog'lari va xiyobonlar, dam olish maskanlari, musiqali favvoralar, bolalar maydonchalari xalqimiz hayot darajasini yaxshilashga katta imkoniyatlarni yaratdi. Ustozlar, qadrdon hamkasblarimiz mehnatsevarligi, fidoyiligi va matonati evaziga Qizilqum sahrosi bag'rida, respublikamizning ko'plab hududlarida ko'rkam konchilar maskanlari, ishlab chiqarish ob'ektlari qad rostladi. Konchilarning mashhaqqatli mehnati, metallurglarning jasorati, boshqa soha vakillarining munosib hisssasi evaziga ona zamin bag'ridan qazib olinayotgan va tayyor mahsulotga aylantirilayotgan bu boyliklar yurtimiz iqtisodiyotini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Bugun yurtimizning turli hududlarida, nafaqat yirik shaharlar, balki tuman markazlari, hatto chekka qishloqlarda ham ko'zni quvontiradigan yangilanishlar yuz bermoqdaki, bu tarixiy jarayonlar ulkan bunyodkorlik davri sifatida Vatanimiz tarixi sahifalariga bitilishi, shubhasiz! Zero, so'nggi yillarda mamlakatimizda qurilish sanoati davlatimiz iqtisodiyotining strategik muhim tarkibiy bo'g'iniga, jamiyatimiz hayoti, uning madaniyati va farovonligi rivojlanishining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi.

Zarafshon qurilish boshqarmasi bunyodkorlarining fidokorona mehnatlari bilan Qizilqum sahrosida Navoiy, Zarafshon, Uchquduq kabi go'zal sanoat shaharlari, Zarkent qo'rg'oni, Marjonbuloq shaharchasi singari konchilar maskanlari, shuningdek, qator ishlab chiqarish korxonlari, yirik gidrometallurgiya zavodlari va ijtimoiy soha ob'ektlari barpo etildi. Shu bilan birga, mamlakatimizning turli viloyatlarida sanoat inshootlarini qurish, qayta ta'mirlash va rekonstruksiya qilish ishlari olib borildiki, bu - zamonaviy bunyodkorlik majmualari sifatida tarixga muhurlandi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida keyingi yillarda amalga oshirilgan va ayni paytda yuqori sur'atlarda davom etayotgan investitsion loyihalar asosida zamonaviy ishlab chiqarish ob'ektlarini qurish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash ishlari boshqarmamiz jamoasiga isho-

nib topshirilmoqda. Biz, mas'uliyatni chuqur his etib, minglab malakali qurovchilarimiz hamda turli kasbdagi ishchi-xodimlarimiz bilan birga har qanday ob-havo sharoitida ham qurilish-montaj ishlari olib borayapmiz. Ushbu mashhaqqatli mehnat natijasida butun dunyoga ko'z-ko'z qilgulik ishlarni amalga oshirishga erishyapmiz.

Bu kabi keng qamrovli ishlar, yirik loyihalar ayni paytda ham davom etmoqda. Jumladan, "7-gidrometallurgiya zavodining qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish" loyihasi qurilish ishlari o'tgan yilda boshlangan bo'lib, joriy yilda nihoyasiga yetkazilishi rejalashtirilgan. Loyiha bo'yicha 4 ta tegirmon, 2 ta quyultirish bo'linmasi bunyod etiladi, bosh bino kengaytiriladi, sorbsiya va desorbsiya, shuningdek, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish uchun zarur bo'ladigan boshqa ob'ektlar quriladi.

"Sanoatelektrmontaj" tresti tomonidan metall konstruksiyalar, uskunalar va kabel tarmoqlari, sendvich panellar hamda elektr ta'mirlash ishlari amalga oshirilayotgan bo'lsa, "Zarafshon" va "Navoiy" qurilish boshqarmalari loyiha asosida bosh bino, maydalash va quyultirish bo'limlari, g'alvirlash sexi, ma'danni saqlash va yetkazish bo'limlari qurilishlarini jadal sur'atlarda olib borishmoqda. Yaqinda g'alvirlash sexida poydevor ishlari to'liq yakunlanib, ikkita maydalash sexini foydalanishga topshirish ishlari yakuniga yetkaziladi. Qo'shimcha qozonlar uchun esa poydevor qurish ishlari boshlab yuborildi. Har bir ob'ektga temir-beton mahsu-

lotlari zavodidan beton, armatura, metall konstruksiyalar va boshqa qurilish mahsulotlari o'z vaqtida yetkazib berilayotgani ishning tez va sifatli olib borilishida katta ahamiyat kasb etyapti.

Bugun jamoamizning sa'y-harakati bilan "Muruntov" konining "Shimoliy-sharqiy majmuasining maydalash va tashish nuqtasini chuqurlashtirish", Shimoliy kon boshqarmasining "Bio-oksizlanish sexi", "Dovg'iztov va Qoqpatas oltin konlarida ruda qazib olish III-bosqichi", Markaziy va Shimoliy kon boshqarmasiga qarashli gidrometallurgiya zavodlaridagi mavjud va yangi "Chiqindilar saqlash omborxonalarini kengaytirish" loyihalari bo'yicha qurilish-montaj ishlari olib borilmoqda. Yirik loyihalarimizdan bo'lgan Janubiy kon boshqarmasi "Zarmitan" konining "Skipli" shaxta stvolini qurish" ishlari yakuniga yetkazilib, 30 aprel kuni ishga tushirildi. Bunday loyihalar nafaqat texnik va iqtisodiy, balki muhim ahamiyatga ham ega.

2024-yilda boshqarmamiz tomonidan 1,2 trillion so'mlik qurilish ishlari bajarildi. Joriy yilning o'tgan davrida ham reja va topshiriqlar o'z vaqtida sifatli ado etilishida, hech shubhasiz, har bir hamkasbimizning faol ishtiroki, fidokorona mehnati mujassam.

Zimmamizga ishchi-xodimlar farovonligini oshirish, ularning hayotdan rozi bo'lib yashashlari uchun qulay shart-sharoit yaratishdek e'zgu maqsadlarni ham olganmiz. Zero, mamlakatimiz taraqqiyotini ta'minlash yo'lida sidqidildan xizmat qilayotgan bunyodkorlarimizning halol mehnati

har qanday hurmat va e'tiborga munosibdir. Ishchi-xodimlarimizni sog'lomlashtirish maqsadida, respublikamiz va kombinat tasarrufida bo'lgan sanatoriy-davolash muassasalariga yo'llanmalar berilayapti. Yozgi ta'tilda ishchi-xodimlarimizning farzandlari "Pahlavon", "So'g'diyona" va "Zarafshon" bolalar sog'lomlashtirish oromgohlarida hordiq chiqarishlari tashkil etilmoqda.

Boshqarmamizda barcha turdagi ishlarni xavfsiz bajarish uchun zarur sharoitlar yaratilgan. Mehnat muhofazasi qoidalarini, me'yorlar va yo'riqnomalarga qat'iy rioya etilishi mutasaddilar tomonidan doimiy nazoratga olingan. Ish o'rinlari har besh yilda bir marotaba mehnat sharoitlari bo'yicha shahodatlashdan o'tkaziladi. Unga ko'ra, ishchi-xodimlar bepul davolovchi profilaktik ovqatlar, maxsus kiyim va poyafzal, yakka tartibdagi himoya vositalari bilan ta'minlanadilar. Ko'pgina xodimlarimiz imtiyozli nafaqa ta'minoti huquqidan ham foydalanib kelmokda.

Bugun, biz bunyod etayotgan bino va inshootlar bilan kelajakka mustahkam poydevor qo'yayotganimizdan faxrlanamiz. Bunyodkorlik shijoati – bu faqat mehnat emas, balki orzu, ishonch, bu – yurakka joylangan fidovonlik hamdir. Boshqarmamiz jamoasi kombinatimiz va yurtimiz ravnaqi yo'lida jonbozlik ko'rsatishda davom etaveradi.

Otabek HASANOV,
Zarafshon qurilish boshqarmasi boshlig'i.


■ "Navoiyuran" davlat korxonasida

Joriy yilning o'tgan olti oyida "Navoiyuran" davlat korxonasi tomonidan mahalliyashtirish, sanoat kooperatsiyasini kengaytirish va importni qisqartirish bo'yicha muhim natijalarga erishildi. Bu yo'nalishlardagi faoliyat korxonaning samarali strategik yondashuvi, mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan yo'lga qo'yilgan hamkorlik va texnologik modernizatsiyaga asoslanganligi bilan ahamiyatlidir.

geotexnologik koni ta'mirlash – mexanika sexida qiymati 32,4 milliard so'mlik polivinilxlorid quvvur-lar va burg'ilash uskunasi uchun ehtiyot qismlar tayyorlandi. "Uchquduq" ishlab chiqarish maydonining Sulfat kislotasi ishlab chiqarish sexi tomonidan qiymati 1,4 milliard so'm bo'lgan sovutgich qurilmasi ishlab chiqarildi.

rildi. Korxonamiz tomonidan 17 ta mahalliy tadbirkorlar bilan "shatakka olish" tizimi yo'lga quyilgan bo'lib, ular bilan hamkorlik natijasida qiymati 195 milliard so'mlik mahsulotlarni kooperatsiya doirasida ishlab chiqarish va mahsulotlarni xarid qilish belgilangan.

RAQOBATBARDOSH MAHSULOT ISHLAB CHIQRARISH YO'LIDA



Hisobot davrida mahalliyashtirish dasturi asosida umumiy qiymati 60 milliard so'mlik 105 turdagi mahsulot ishlab chiqarildi. Bu natija 15 ta loyiha doirasida amalga oshirilib, reja 102,7 foizga bajarildi.

Xususan, "Zafarobod" kon boshqarmasi Ta'mirlash-mexanika sexi tomonidan uran konsentratini tashish va saqlash uchun 210 litr hajmli muxsus metall konteynerlar, ishlab chiqarish texnologik jarayonlarida foydalaniladigan bosimli sorbsiyalash kolonnalar, Uran ishlab chi-

qarish zavodi uchun aylanma gorizantal quvurli pechlar, burg'ilash quvurlarini og'irlashtiruvchi shtangalar, markazdan qochma kimyoviy nasoslar uchun ehtiyot qismlar, burg'ilash uskunalar uchun ehtiyot qismlar va rezina mahsulotlar, elektr cho'kirma nasoslar uchun ehtiyot qismlar kabi umumiy qiymati 26,2 milliard so'm bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarildi.

Shuningdek, "Nurobod" ishlab chiqarish maydoniga qarashli Plastmassa quvurlari va mahsulotlari ishlab chiqarish sexi hamda "Sobirsoy"

Yilning birinchi yarmida sanoat kooperatsiyasi asosida mahalliy korxonalardan 581,5 milliard so'mlik mahsulot xarid qilindi. Jumladan, sanoat kooperatsiyasi doirasida "Navpromlilmash", "Kompressor Navoiy", "Aziya-Gormash", "Gidro Stanko Servis" kabi mahalliy ishlab chiqaruvchilardan burg'ilash uskunalar uchun ehtiyot qismlar va asbob uskunalar, "Navoiyazot", "OKMK", "O'zbekneftgaz" "Maksam Chirchiq" kabi yirik korxonalar tomonidan uran sanoati uchun zarur bo'lgan kimyoviy reagentlar xaridi amalga oshi-

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida korxona mutaxassislari tomonidan "shatakka" olingan korxonalarning 12 tasi bilan mahsulot ishlab chiqarish jarayonida konstruktorlik, texnologik va texnik hujjatlarni ishlab chiqish, texnik maslahat berish yo'nalishlarida ko'maklashildi. "Shatakka" olingan 17 ta korxonadan bugungi kunda 12 tasi bilan elektron kooperatsiya portali orqali 158,9 milliard so'm pul mablag'leri mahalliy ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik subyektlari hisob raqamiga o'tkazib berildi va ushbu korxonalar tomonidan qiymati 84,9 milliard so'mlik mahsulotlar korxonamizga yetkazib berildi.

Jizzax, Toshkent, Samarqand, Sirdaryo, Buxoro va Farg'ona viloyatlarida o'tkazilgan hududiy sanoat yarmakalarida korxonamiz ma'sul xodimlari faol ishtirok etib, yarmarka doirasida mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan umumiy qiymati 235,1 milliard so'mlik 227 ta hamkorlik shartnomalari tuzildi. Ushbu shartnomalar ijrosi ta'minlanmoqda.

Xulosa o'rinda aytish mumkinki, "Navoiyuran" davlat korxonasi tomonidan olib borilayotgan mahalliyashtirish va sanoat kooperatsiyasi, importni qisqartirish hamda "shatakka olish" kabi mexanizmlar davlatimiz iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashga, yurtimiz sanoatini ichki imkoniyatlar asosida rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Xurshid KAMOLOV,
"Navoiyuran" davlat korxonasi Mahalliyashtirish bo'limi boshlig'i.

■ Оramizdagi odamlar

MOHIR QURUVCHI



Navoiy kon-metallurgiya kombinatini qurilish sohasi keyingi yillarda amalga oshirayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, yirik investitsion loyihalari bilan tanilib bormoqda. Mana shu yutuqlar barobarida kombinat maktabida shakllangan mohir quruvchilar avlodi etishib chiqmoqda. Bosh direktorning investitsiyalar va kapital qurilish bo'yicha o'rinbosari Mirzaboy Alqarov ana shunday hamkasblarimizdan biridir.

Mirzaboy akani bugun jamoada, sohada tanimgan-bilmagan kishi yo'q. Yaxshi mutaxassis bo'lgani uchun barcha uni hurmat qiladi. O'n uch yildan beri kombinat tizimida muhim rahbarlik lavozimlarida ishlab kelmoqda. Aslida, bunday baxt har kimga ham nasib etavermaydi.

Qahramonimiz yillar davomida ko'p joylarda ishlab, tajriba o'rtirgan. Kombinat tizimida esa 2012-yildan buyon ishlab kelayapti. Kapital qurilish boshqarmasida guruhi rahbari vazifasida ish boshlagan hamkasbimiz uchun kombinatda ishlash qutlug' keldi. Mehnati bilan tanilib, e'tiborga tushdi. Kapital qurilish boshqarmasi boshlig'i lavozimida ishlagan davrlar katta sinov bo'ldi. Mirzaboy Daminovich keyingi yillarda ulkan investitsion loyihalarni amalga oshirishda faol ishtirok etib, o'zini ko'rsatdi, yetuk quruvchi sifatida ishonchga sazovor bo'ldi. Ushbu zamonaviy bunyodkorlik namunalari nafaqat O'zbekiston sanoati, balki dunyo kompaniyalari orasida ham kombinatga yuksak muvaffaqiyat keltirdi.

Uning insoniy fazilatlariga ham havas qilsak arziydi. Oddiy, samimiy, hammaga birdek. U kishi haqida faqat ijobiy ta'riflar, maqtovlar eshitib, mana shunday insonlar bilan birga ishlayotganimizdan xursand bo'lamiz. Aslida, ko'pming kishilik jamoamizda mehnatidan qadr topgan, hurmat-e'tiboriga ega bunday fazilatlari insonlar ko'p. Buning ortidan kombinatda ahil-inoqlik, yuqori ishchanlik kayfiyati, yutuqlar bardavom.

Mirzaboy aka asli qo'shrabotlik. Ziyloli oilasida dunyoga kelgan. Otasi Damin bobo butun umr qishloq maktabida ishlagan, hayotini ushbu sharaflilik kasbga bag'ishlagan va sohada hurmat-e'tibor qozongan muallim bo'lgan. Turmush o'rtog'i Ashirov aya bilan sakkiz nafar farzandni tarbiyalab, voyaga yetkazgan, uyli-joyli qilgan. Ular orasida Mirzaboy bolaligidan quruvchilikka qiziqib o'sdi. Orzulari Samarqand davlat arxitektura-qurilish institutiga yetaklab, 1992-yilda bu oliyogho

muhandis-quruvchi mutaxassisligi bo'yicha tugatdi. Bu yerda yetuk olimlar R.Xolmurodov, A.Acrorqulov, I.Ismatov kabi tajribali ustozlardan olgan saboq uning hayot yo'lini nurafshon etdi.

Kasb taqozosi uni Navoiy viloyatiga yetakladi. Bu, mustaqillikning ilk yillari edi. Ustozlar etagidan tutib, o'z mutaxassisligi bo'yicha turli joylarda, qurilish tashkilotlarida ishladi. Qarangi, bunga ham o'ttiz yildan oshibdi. Mirzaboy aka Navoiyga kelib kam bo'lmadi. Aksincha, sharafli hayot yo'lini topdi.


U kishi haqida "Navoiy KMK" AJ Kapital qurilish boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari Sunnatilo Boqiyev shunday deydi:

— Mirzaboy aka vaqt bilan hisoblashmay har bir vazifani vaqtida bajarishga odatlangan, o'ta mas'uliyatli, kamtarin inson. Kecha-yu kunduz ishlab, yelib-yugurib charchamaydi. Soha ilmini chuqur o'zlashtirgan kuchli mutaxassis. Ish jarayonida bunga har kun guvoh bo'layapman. U kishidan birga ishlash jarayonida ko'p narsalarni o'rgandim. Bu insonga hamisha havas qilaman.

Xalqimizda: "Yaxshi she'r o'z ohangi bilan yaraladi", deganlaridek, Mirzaboy akaning oilasi ham ana shu ohang bilan dunyoga kelgan. Oliyogho tumush o'rtog'i Unsinoi bilan kursdosh va kasbdosh bo'lib o'qigan davrlarda yaralgan. Oila bekasi ancha yillar muhandis-quruvchi bo'lib ishlab, ayni vaqtda pensiyada. Bu ikki munosib juftlik uch o'g'lini dunyoga keltirib, ta'lim-tarbiya berdi. Ayni vaqtda to'ng'ich farzandi Sardorjon huquqni muhofaza qilish organi, Sherzodjon ota-onasi izidan borib bugungi kunda "Qizilqum" kon boshqarmasida muhandis-quruvchi, Samandarbek esa Toshkent moliya instituti talabasi. Danagidan mag'zi shirin, deganlaridek bu oila uchun nevaralari Xondamir, Abubakr, Xonzoda, Shahrizodalar ularning baxtu-quvonchi.

Adiba AXMEDOVA.

■ Davlat dasturi – amalda!



Mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish yurtimiz iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Navoiy kon-metallurgiya kombinatida bu borada olib borilayotgan ishlar ko'lamini, iqtisodiy samaradorlik hajmi yildan-yilga kengayib borayotir. Birgina, 2019-2024-yillarda jami 3,1 trillion so'mlik mahalliyashtirilgan mahsulotlar o'zlashtirilib, ishlab chiqarish hajmi 2,7 barobarga oshgani buning isbotidir.

MAHALLIYLASHTIRISH

Joriy yilda kombinatda mahalliyashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini 1,5 barobarga oshirish, ya'ni, 1,4 trillion so'mga yetkazish ko'zda tutilgan. Birgina, o'tgan yarim yillikda mahalliyashtirish dasturi doirasida 757,5 milliard so'mlik mahsulot ishlab chiqarishga erishildi. Xususan, loyihalar orasida yirik o'lchamli ma'danlarni maydalash tegirmonlarini ishlab chiqarish eng katta yutuqlardan biri hisoblanadi.

— Dastur doirasida loyihalarni amalga oshirishda Navoiy mashinasozlik zavodining hisssasi beqiyos, — deydi "NKMK" AJ Mahalliyashtirish dasturlarini shakllantirish va monitoring qilish bo'limi boshlig'i Ulug'bek Sanatqulov. — Birgina, joriy yilda ushbu korxonada 1,1 trillion so'mlik mahalliyashtirilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Bunda, nafaqat asosiy faoliyat uchun ehtiyojdagi mahsulotlar, balki kombinatda olib borilayotgan investitsion loyihalar uchun nostonadart, texnologik jihatdan murakkab uskunalar ishlab chiqarilmoqda.

Yaqin vaqtlargacha Navoiy mashinasozlik zavodida hajmi kichik bo'lgan sharli tegirmonlar qayta ta'mirlangan bo'lsa, oxirgi sakkiz yilda kombinat mutaxassislari ilmiy izlanishlari asosida xalqaro texnologik standartlarga mos keladigan yirik o'lchamdagi sharli tegirmonlarning bir necha turlari o'zlashtirildi. Joriy yilda ham "7-gidrometalurgiya zavodi ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish" investitsion loyiha doirasida kombinat mutaxassislari tomonidan ilk bor yangicha o'lchamdagi, hajmi 5,5x8,5 metr bo'lgan maydalash tegirmoni va 7,0x2,3

metr o'lchamli to'liq jihozlangan maydalash tegirmonini tayyorlashga erishildi.

Kombinatning bu boradagi eng katta yutuqi, Navoiy mashinasozlik zavodida zamonaviy yangi sex va samaradorligi yuqori, energiya tejankor 25 tonnalik metall eritish pechi, bir qator yirik o'lchamdagi uskuna va dastgohlarni o'rnatgani bo'ldi. Bu, o'z o'rnida, gigant korxona yirik ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lishiga keng imkoniyatlar yaratdi.

Bugun o'zining zamonaviy ishlab chiqarish korxonalariga ega "Qizilqum" kon boshqarmasi bu yo'nalishda yetakchilar safida. O'tgan yili "Pistali" koni maydonida kon va texnologik jihozlarni ta'mirlash uchastkasi tashkil etildi. Ushbu uchastkada metalga ishlov berish dastgohlari o'rnatilib, kon texnikalari uchun ehtiyot va butlovchi qismlar, texnologik uskunalar uchun mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish maqsadida, uchastkada nostonadart uskunalari, ekskavatorlar uchun ehtiyot qismlari o'zlashtirish reja qilgan.

Bir so'z bilan aytganda, kombinatda mahalliyashtirish ko'rsatkichi bugungi kunda 60 foizdan yuqori. Mavjud xomashyo, ishlab chiqarish, ilmiy-texnik va mehnat unumdorligini tahlil qilish asosida yangi loyihalarni tatbiq etish hamda amaldagi loyihalarni davom ettirgan holda, asosiy e'tibor mahalliyashtirish dasturini keng joriy etishga qaratilgan.

Dildora KARIMOVA.

■ На производственных площадках



Идёт в ногу со временем и АО «Навоийский горно-металлургический комбинат», активно и успешно внедряя на своих производственных площадках новейшие IT-технологии. Этими работами занимаются опытные и изобретательные специалисты, способные выполнять сложнейшие задачи в этой сфере.

Одним из них является заместитель главного инженера Южного рудоуправления по автоматизации производства Алишер Абдурахманович Нармаматов - опытный специалист, имеющий 30-летний стаж работы в НГМК. Уроженец города Нурабад, в 1995 году после окончания факультета «Электроники и автоматики» Ташкентского государственного технического университета прибыл работать в Южное РУ НГМК. А.А.Нармаматову доверили автоматизацию процессов на руднике по добыче урана «Сабирсай».

За 30 лет работы ему довелось трудиться в Северном РУ на урановых рудниках, затем был инженером, заместителем начальника, начальником ЦЛ КИПиА Южного РУ. В этот период Алишер Абдурахманович наладил работу службы КИПиА на руднике «Марджанбулак». Далее трудился заместителем главного инженера рудоуправления по информационным технологиям. С 2023 года работает заместителем главного инженера по автоматизации производства.

Вспоминая о самых интересных проектах по автоматизации производства, в которых он участвовал, Алишер Абдурахманович рассказывает:

— Среди наиболее значимых проектов могу назвать запуск МЗИФ в 2002 году. Здесь мы поэтапно проводили автоматизацию производственных процессов, их контроль и защиту в отделениях измельчения, сгущения, на компрессорных станциях и других. В те годы нам удалось автоматизировать 80% производства МЗИФ. В 2008 году автоматизировали отделение цепочки

Автоматизация и цифровизация производства в нынешних реалиях имеют особую актуальность, позволяя повысить производительность, управлять и контролировать производственные процессы, обеспечить необходимое и стабильное качество продукции.



сборции. Это была очень значительная и интересная работа.

Затем было начато строительство ГМЗ-4 в 2010 году. Наша служба полностью выполнила работы по автоматизации заводских процессов, что было достаточно непросто, ведь, как помните, ГМЗ-4 построили в рекордно короткие сроки — за 10 месяцев. В настоящий момент это одно из самых современных предприятий в стране.

К реализации проекта «Система позиционирования персонала, техники, оповещения и беспроводной связи» мы шли порядка 10 лет. Система обеспечивает точное определение местоположения техники и персонала в подземных горизонтах, а ранее информация о том, что происходит в шахте, была нам недоступна. Благодаря данной системе значительно повысился уровень производственной безопасности и прозрачности в шахтных условиях. А также мы контролируем загрузку техники, что способствует повышению эффективности логистики и снижению простоев. Данные отображаются в ре-

жиме реального времени на автоматизированном рабочем месте (АРМ) диспетчера рудника и в формате 3D на мониторах в планах подземных выработок.

Система оповещения происходит с помощью индивидуальных шахтных фонарей, имеющихся у каждого работника. Не так давно мы приобрели новые фонари с зарядными станциями, которые работают до 38 часов под землей без подзарядки. Они оснащены двумя чипами, а именно — один указывает местонахождение шахтера, а второй работает для его индивидуального оповещения путём световых сигналов при ЧС.

В данной технологии есть и система антимагнетизма. Шахтная автотехника оснащена бортовыми компьютерами, которые сканируют пространство в радиусе 50 метров. При обнаружении человека (т.е. фиксации сигнала от чипа на фонаре), либо другой техники, компьютеры оповещают водителя звуковым сигналом. Таким образом, удаётся избежать столкновения машин

АКТУАЛЬНОЕ НАПРАВЛЕНИЕ ПРОИЗВОДСТВА

друг с другом или наезда на человека.

Система запущена её на руднике «Зармитан» в конце 2024 года, и в данное время это единственный подобный проект в Узбекистане. В настоящее время продолжается усовершенствование программ системы, чтобы, к примеру, контролировать работу вентиляторов, насосных станций, определять уровень концентрации газов, оповещать людей о скоплении газов и т.д. В будущем году планируем охватить этой системой рудник «Гужумсай», тогда каждый работник и каждая единица техники под землей будут у нас на виду.

Большим достижением коллектива Южного РУ в этом году стало строительство и запуск в эксплуатацию в апреле месяца шахтного ствола «Скиповой», глубиной 1000 метров, высотой копра 65 метров, с двумя подъёмными машинами. Это единственный подобный реализованный проект в Узбекистане, и все рабочие процессы ствола полностью автоматизированы нашими силами...

Ежедневные обязанности специалистов по автоматизации Южного РУ и коллектива ЦЛ КИПиА также важны. Они обеспечивают бесперебойную работу камер видеонаблюдения на складах, шахтах, карьерах, работу сигнализаций — пожарной, охранной, шахтостоловой и т.д.

В этой сфере деятельности есть и место для рационализаторства. Ежегодно специалисты по автоматизации с рудников и ГМЗ-4 оформляют по 3-4 рационализаторских предложения. В этом году двое работников удостоены дипломов конкурса «Лучшее рационализаторское предложение», проводимого в НГМК, — Мираббос Раззаков за работу по IT-направлению, Бекзод Тухташев по автоматизации.

В ряду опытных и перспективных специалистов стоят ведущий инженер

службы автоматизации производства Хуршид Хасанов, программист Бекзод Тухташев, начальник ЦЛ КИПиА Мухтар Муминов, начальник участка КИПиА рудника «Зармитан» Азиз Баратов, главный приборист ГМЗ-4 Сирожиддин Джаниев, начальник лаборатории КИПиА рудника «Марджанбулак» Равшан Усаров.

Этой команде профессионалов под руководством А.А.Нармаматова предстоит ещё много важной и интересной работы.

В настоящий момент диспетчеризация рудников Южного РУ сделана частично. И мы работаем над созданием в течение ближайших двух лет полной и индивидуальной диспетчеризации каждого рудника, — поделился планами Алишер Абдурахманович. — Также с помощью специалистов Центрального проектного бюро комбината разработан проект по системе позиционирования, оповещения и связи на руднике «Гужумсай» и расширению имеющей системы на руднике «Зармитан». На ГМЗ-4 установлен дополнительный реактор и выполнена автоматизация в полном режиме для повышения производительности и увеличения коэффициента извлечения металла. На площадке «Марджанбулак» сданы в эксплуатацию автоматические автомобильные и железнодорожные весы.

Развитие данного направления — не просто требование времени. В условиях цифровой трансформации экономики и всеобщего ускорения процессов, автоматизация производства критически важна для развития предприятий. Она позволяет не только повысить конкурентоспособность, но и обеспечить устойчивое развитие производства в долгосрочной перспективе. И специалисты Южного РУ прилагают все знания и опыт для автоматизации процессов на производственных площадках.

Насиба ШАМУРАТОВА.

BUNYODKORLIK SOLNOMASI

Kombinat ulkan ijtimoiy mas'uliyatni zimmasiga olib, hududlarda konchilar maskanlari, turar-joylar, ijtimoiy soha obyektlarini qurishda ham faol ishtirok etib kelmoqda. Bundan hamkasblarimiz, ularning oilasi, farzandlari, mahalliy aholi vakillari xursand. Bu inshootlar Yangi O'zbekistonda inson qadrini ulug'lashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilmoqda.

NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

2016-yilda Navoiy shahrida 2000 talabaga mo'ljallangan Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti o'quv binosi qurib, foydalanishga topshirildi.



“NKMK” SANATORIYSI

2019-yilda Zomin tumanida 150 o'rinli "NKMK" sanatoriysi foydalanishga topshirildi. Zamonaviy tibbiy-dagnostika uskunalar bilan jihozlangan mazkur sanatoriya dam oluvchilarning sevimli maskaniga aylandi.



“UMID” MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI

2022-yilda Zarafshon shahrida "Umid" maxsus ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti qurilib, foydalanishga topshirildi.



XALQARO SHAXMAT MAKTABI

2024-yilda Qiziltepa tumanida zamonaviy va xalqaro standartlarga mos 100 o'rinli Xalqaro shaxmat maktabi qurildi.



“GORNYAK” PANSIONATI

Bo'stonliq tumanidagi "Gorniyak" pansionati 2023-yilda kapital ta'mirlandi va kombinati ishchi-xodimlari va dam oluvchilarga maroqli hor-diq chiqarishlari uchun qulay sharoit yaratildi.



■ Dolzarb 90 kunlik

Yoshlar festivali

barchani birlashtirdi

Nurota va Tomdi tumanlarida “Dolzarb - 90 kunlik” tadbirlari doirasida “Yangi O‘zbekiston yoshlari, birlashaylik!” shiori ostida yoshlar festivali o‘tkazildi.

Yoshlarni jismonan sog‘lom, ma‘naviy yetuk insonlar etib tarbiyalash, yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarda ularning faol ishtirokini ta‘minlash maqsadida o‘tkazilgan bu kabi madaniy-ma‘rifiy, sport tadbirlarda hokimlik mu-tasaddilari, Navoiy kon-metallurgiya kombinati rahbariyati, Yoshlar yetakchilari Kengashi faollari so‘zga chiqib, davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan mamlakatimizda yoshlarni har tomon-lama qo‘llab-quv-vatlash maqsadida amalga oshirilayot-gan ishlar haqida to‘x-talib o‘tdi.

Festival doirasida ma‘naviy-ma‘rifiy, turli sport tadbirlari ham tash-kil etildi. Jumladan, Nurota tumani markazidagi istirohat bog‘ida joylashgan amfiteatrda aholi uchun konsert dasturlari, havaskor yoshlar, iste‘dod sohiblari-ning “Tasviriy va amaliy san‘at”, rasmlar tanlovi, “Zukko kitobxon”, “Zakovat” intellek-tual o‘yinlarida iqtidorli yoshlar faol qatnashdi.



– “Dolzarb 90 kunlik” loyihasi doirasida Navoiy kon-metallurgiya kombinati ho-miyligida tashkil etilgan tadbirlar tumanimiz aholisiga ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishladi, – deydi Yoshlar ishlari agentligi Nu-rotu tumani bo‘limi boshlig‘i Umar Usmonov. – Ayniq-sa “Yangi O‘zbekiston yoshlari, birlashaylik!” shiori ostida o‘tgan gala-konsert yosh-larimizga unutilmas taassurotlarni taqdim etdi.

Gala-konsertda O‘zbekiston xalq ar-tisti Jenisbek Piya-zov, estrada xonan-dasi Jasur Mavlonov hamda “Farhod” ma-daniyat saroyi yakka-xon xonandalari va yosh iste‘dod egalari ijrosidagi qo‘shiqlar yig‘ilganlarga ko‘tarinki kayfiyat bag‘ish-la-di. Ta‘kidlash kerakki, minglab yoshlarni bir davraga jamlagan festival, tom ma‘noda yangi maq-sadlar, kelajakka ishonch, shijoat va ta-shhabbuskorlik tantanasiga aylandi.

A.G‘ULOMOV.

■ Inson va qonun

QING‘IR ISH — KELTIRAR TASHVISH

Xalqimizda “So‘nggi pushaymon o‘zingga dushman”, degan naql bor. Bu hayotda qilgan xatoingdan to‘g‘ri xulosa chiqar, uni takrorlama, degan xulosani beradi. Shunday insonlar borki, ular ji-noyat ko‘chasini tanlab, qing‘ir yo‘llar bilan mol-dunyoy topishni odat qilishadi hamda hayotining ma‘lum qismini pan-jara orqasida o‘tkazishadilar.

Fuqaro M.O. ana shunday kimsalar toifasidan. U endigina o‘ttiz olti yoshni qarshilayapti. Bu inson umrining eng yaxshi, oilasi va jamiyat uchun foyda keltiradigan, baxtli kelajagini yashaydi-gan davridir. Afsuski, fuqaro M.O. shu yoshida turli jinoyatlar sodir etib, bir necha bor sudlangan. U bundan saboq chiqarib, hayotini to‘g‘ri yo‘lga solish o‘rniga yana jinoyatga qo‘l uradi. M.O.

jinoiy sheriklari Q.Z. va N.A. lar bilan yo‘lovchi taksi avtomashinasida tun yar-mida Navbahor tumani “Navkar” MFY, Nurchilar ko‘chasi, yashovchi M.X.ning yashash xonadoniga hovlining tashqi yon tomonidagi darcha orqali kirib, yo-toqxonadan uxlab yotgan xonadon ega-siga hujum qilib, uning hayoti va sog‘-ligi uchun xavfli bo‘lgan zo‘rikl ishlatib, unga o‘rtacha og‘irlikdagi tan jarohat yetkazadilar. Jinoyatchilarga faol qar-shilik ko‘rsatgan jabrlanuvchining qo‘l va oyoqlarini “skotch” yordamida bog‘-lab, xonadan 47 million so‘m miqdorida pul mablag‘larini, narxi 1 million 200 ming so‘mga teng bo‘lgan “Samsung” rusumli, narxi 3 million 200 ming so‘m bo‘lgan “RedMi” rusumli telefon appa-ratlarini, narxi 3 million 500 ming so‘m

bo‘lgan noutbukni, narxi 870 ming so‘m bo‘lgan videokamerani, shuningdek er-kaklar qo‘l soati, charm sumka, 50 mil-lion 400 ming so‘mlik tilla taqinchoqlar, jami 106 million 440 ming so‘mlik mol-mulkni bosqinchilik yo‘li bilan qo‘lga kiritib, voqea joyidan yashirinishgan.

“Buzoqning qochgani somonxonaga-cha”, degan hikmatli so‘zlar yana bir bor o‘z isbotini topdi. Jinoiy guruh odil sud oldida qilmishlariga yarasha jazo oldi. Sudlanuvchilarga qonun doirasida jazo tayinlandi. “Qilmish-qidirmish”, deb be-jizga aytilmaganda!

Sergey FRENKEL,
O‘zbekiston Respublikasi Bosh
prokuraturasi Xalqaro-huquqiy
boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari.

Yubiley
muborak!

Sen uchun umrimni mujassam aylab,
Xayrli ishlarga mahkam bel boylab,
Qalbimga faxrni, tilakni joylab:
Yuragim bu palla quvonchga to‘lgay,
Korxonam, yubiley muborak bo‘lgay!

Quruvchi elsakki, xo‘p nomi doston,
Xalqimga yaratding ko‘p ajib bo‘ston,
Gulladi, yashnadi, hur O‘zbekiston,
Bu kezda qutlashga etgayman jazm,
Bunyodkor ahliga qilgayman ta‘zim!

Lobar USMONOVA,
“Navoiy” qurilish-montaj
boshqarmasi buyoqchisi.

Shukuh

Mustaqillik tongi ota boshladi,
Dillarga bag‘ishlab, olam-olam nur.
Dorilomon zavqni tota boshladi,
Bu kunga yetganga ming karra shukur!

Elaro shukuhli bir shodlik kezar,
Go‘zal tarovatga bo‘rkandi bog‘lar:
Xalqim hayotini yasharish bezar,
Qandayin betakror nurafshon chog‘lar!
Muhayyo RO‘ZIYEVA,
“Sanoatelektromontaj” tresti chilangari.

Quruvchilar jodidan
Faxr

Boshqarma kombinat faxru g‘ururi,
Tunu kun tinmagay mehnat sururi.
Buyuk marra sari tashlagay qadam,
Qurgan har binoda hayrat mujassam.

Zahmatdan qabargan bu qadoq qo‘llar,
Mehnatda toblangan bu - ezgu dillar:
Imorat qurarki, poydevor, mustahkam,
Jamoaning ishida yutuq, zafar jam.

Bunyod bo‘lajakdir zavodu konlar,
Shaharu qo‘rg‘onlar, obod makonlar:
Sahroni gullatib, aylab bo‘stonga,
Ular sayqal erur O‘zbekistonga!

Kombinatda yuksalar qurilish, hayot,
Bunyodkor ahlining qalbida bayot.
Shu palla qutlashga tug‘ildi imkon:
Yubiley muborak, bo‘lsin sharaf-shon!

Sardor UMAROV,
Zarafshon qurilish boshqarmasi
xodimi.

■ Yoz – 2025

Bolalar sog‘lomlashtirish
oromgohlarida yosh
avlodning maroqli
dam olishi, sog‘lig‘i
va ijodiy salohiyatini
mustahkamlash uchun
barcha shart-sharoitlar
yaratilgan.



SOG‘LOM AVLOD — MILLAT KELAJAGI



“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati, “Navoiyuran” dav-lat korxonasi va “NKMK jamg‘armasi” davlat muassasasining ishchi-xodimlari farzandlari uchun tashkil etilgan bu yilgi mavsum 6 ta oromgohda 4 ta smenada 24-avgustgacha davom etadi. Bo‘ston-liq tumanidagi “Pahlavon”, Urgut tuma-nidagi “Kelajak”, Kattaqo‘rg‘on tumanidagi “So‘g‘diyona”, Paxtachi tumanidagi “Bolajon”, Navbahor tumanidagi “Sar-mish”, Tomdi tumanidagi “Zarafshon” yozgi bolalar oromgohlari bilan bir qa-torda, Navoiy shahrida “Bulbulcha”, Za-rafshon shahrida “Tabassum”, Uchqu-duq shahrida “Yulduz” kunduzgi bolalar

sog‘lomlashtirish oromgohlari faoliyat olib bormoqda. Bundan tashqari, Na-voiy shahridagi “Mash‘al” va Zarafshon shahridagi “Yoshlik” mehnat va dam olish oromgohlari ham tashkil etilgan.

“Yoz – 2025” mavsumi davomida oromgohlarda jami 12 040 nafar bola sog‘lomlashtirilishi va dam olishi reja-lashtirilgan. Har bosqich boshlanishida ertalabdan bolalar avtobuslarda kuzatil-moqda. Bu – NKMK xodimlari kasaba uyushmasi Kengashi mas‘ullari, korxo-na transport bo‘limi mutaxassislari to-monidan qat‘iy nazorat ostida amalga oshirilmoqda.

Oromgohlarda har bir kun bolalar-ning bilim va salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan dasturlar asosida tashkil etil-gan. Guruhlarga malakali tarbiyachilar birlashtirilgan. Tibbiy xizmat, ovqatlanish, jismoniy tarbiya va sport masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Shuning-dek, yotoqxonalar, sport maydoncha-lari, basseynlar, kutubxona, oshxona, yozgi pavilyonlar, yugurish va velosiped yo‘laklari, tibbiy xizmat ko‘rsatish punkt-lari tashkil etilgan. Bundan tashqari, madaniy va sport tadbirlari, estafetalar, spartakiadalar, hunarmandchilik mash-g‘ulolari, ijodiy tanlovlar o‘tkazilmoqda. Har bir bola o‘z qiziqishiga mos faoliyat bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega.

– Bolajonlarning sog‘lig‘i, kayfiyati, ilm va hunarga bo‘lgan qiziqishini oshi-rish, ularni sog‘lom turmush tarziga o‘rgatish barchamizning ustuvor vazifa-mizidir, – deydi “Sarmish” bolalar sog‘-lomlashtirish oromgohi rahbari Mah-buba Umarova. – Har bir muammo o‘z vaqtida bartaraf etilmoqda. Shu bois, ota-onalar farzandlarini ishonch bilan bizga topshirmoqda.

Oromgohlarda tashkil etilayotgan bunday keng qamrovli ishlar yurtimizda sog‘lom avlod tarbiyasiga qaratilayot-gan e‘tiborning torqin namunasidir.

“NKMK jamg‘armasi” DM
axborot xizmati

ВЕСЁЛОЕ ЛЕТО В

Что такое пустыня Кызылкум сегодня? Это не только «горячее солнце, горячий песок...», но и современные города, промышленные площадки, рудники и карьеры... И самый красивый оазис – детский оздоровительный лагерь «Зарафшан» Навоийского горно-металлургического комбината.

– Для полноценного отдыха детей здесь имеются благоустроенные жилые корпуса, оснащенные системами охлаждения, удобными кроватями, сушильными и гладильными комнатами, – рассказала начальник ДОЛ «Зарафшан» Гулзода Олимовна Холматова. – А также столовая, библиотека, различные кружки по интересам, бассейны. Весь персонал лагеря – вожатые, воспитатели, спортивные инструкторы, музыкальные работники, руководители кружков, работники кухни, сотрудники охраны и другие – не жалеют времени, сил и фантазии для того, чтобы дети провели веселые, незабываемые и безопасные каникулы.

Благодаря слаженной работе персонала ДОЛ «Зарафшан», он особенно популярен среди детей и пользуется доверием родителей. Желающих отдохнуть здесь так много, что в этом году на второй смене пришлось организовать дополнительный отряд, и общая численность детей за сезон составила 580 вместо 540. В их числе не только дети работников Навоийского ГМК, но и воспитанники семейных детских домов, ребята из малообеспеченных семей Зарафшанского, Учкудукского и Тамдынского районов, которым путёвки сюда предоставляются бесплатно. Таким образом, за летний период здесь планируют оздоровить более 2280 детей.

Но не только хорошие условия привлекают ребят. Педагогический состав проявляет огромную фантазию при разработке плана и организации развлекательных и культурно-просветительских мероприятий. Он составлен с учётом интересов и возможностей детей, на основе интернациональных, культурно-исторических традиций и ценностей. Все ребята принимают активное участие в таких мероприятиях как «Пять инициатив лагеря», «В гармонии с профессиями», «День спорта и здоровья», «Юный читатель», «День английского языка», «День моего любимого героя или сказки», «Юный режиссёр», «Национальные танцы разных народов», «Наши великие предки», «Служу Родине» и других.

Библиотека лагеря «Зарафшан» располагает более 2400 экземплярами детской литературы, включая художественную, научную, брошюры, журналы и газеты. Также здесь проходят показы художественных и научно-популярных фильмов, мультфильмов, видеороликов, направленных на духовно-патриотическое развитие детей.



Разнообразие кружков по интересам также привлекает детей. Ребята с удовольствием занимаются в кружках «Шахматы - гимнастика для ума», «Теннис», «Велодром», «Умелые ручки», «Изучаем язык», «Библиотекари», «Компьютерная грамотность», «Изобразительное искусство», «Танцы», «Доигра» и т.д. Небольшое время отводится для посещения кинозала, караоке, игр в PlayStation, аэрохоккей, стрельбу из лука, батуты, весёлых аттракционов. Кроме этого, постоянно проводятся конкурсы, викторины, театральные постановки и концертные программы. Ну и, конечно же, ребята активно занимаются спортом. Плавают в бассейнах, играют в волейбол, баскетбол, футбол, занимаются прыжками в длину и лёгкой атлетикой. Есть для них турники, брусья, шведская стенка.

Стараются для ребят и работники столовой, перво-классные повара – пятиразовое питание в уютной и светлой столовой всегда разнообразное, полезное и вкусное. В современном двухэтажном медицинском пункте за здоровьем детей круглосуточно наблюдают квалифицированные врачи. Здесь имеются все необходимые медикаменты для оказания первой помощи, боксы-изоляторы, машина скорой помощи. В течение всех оздоровительных сезонов круглосуточно дежурят сотрудники национальной гвардии, МЧС и пожарной части.

Детский оздоровительный лагерь «Зарафшан» не раз становился лучшим среди ДОЛ Навоийского ГМК, признан «Самым образцовым детским оздоровительным лагерем». А самое главное, что дети Кызылкумов проводят здесь незабываемые летние каникулы, открывают творческие возможности и находят новых друзей.

Дина МУРАТОВА.

KONCHILAR HAYOTI

MUASSIS:
“NAVOIY KON-
METALLURGIYA
KOMBINATI” AJ

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2022-yil 4-fevralda
1521-raqam bilan qayta
ro‘yxatga olingan.

Muharrir v.b.:
Azamat
ZARIPOV



Tahririyat manzili:
210100,
Navoiy shahri, Navoiy ko‘chasi,
27-uy,
“NKMK” AJ boshqarmasi
Telefonlar:
Muharrir: 79 227-74-64.
Faks: 79 227-75-66

Gazeta har oyda ikki marta chop etiladi va “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ, “Navoiyuran” DK, “NKMK jamg‘armasi” DM bo‘linmalariga tarqatiladi.
Bahosi kelishilgan narxda.

Gazeta “Konchilar hayoti” gazetasi tahririyatida terildi va sahifalandi.
“Noshir Lux” MChJ bosmaxonasida ofset usulida bosildi.
Nashr sifati bo‘yicha (91) 557-10-95 raqamli telefonga murojaat etishingiz mumkin.
Bosmaxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Navbatchi: Nasiba SHAMURATOVA
Texnik muharrir: Zafarjon OLIMOV

Qog‘oz bichimi A2. 11700 nusxada chop etildi.
Buyurtma № 352.
2025-yil 29-iyul 17:00 da
chop etishga topshirildi.